

## ZOONIMIK FRAZELOGIK BIRLIKLARNI BADIY ADABIYOTLAR TARJIMALARIDA AKS ETISH MUAMMOLARI

Xoshimova Odina Olim qizi  
NamDCHTI tayanch-doktoranti  
E-mail: [odina.khoshimova@gmail.com](mailto:odina.khoshimova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Butun bir asarni, undagi barcha frazeologizmlarni ikki tarjimon bir-biriga mutloq o'xshaydigan qilib tarjima etishi mumkin emas. Shuning uchun frazeologik birliklarni ayni kontekstga mos holda, ikki tarjimon ikki xil tarjima qilar ekan, buning uchun tarjimonlarni ayblash badiiy tarjimaning spetsifikasiga tushunmaslik demakdir. Quyida ba'zi badiiy asarlar tarjimalari tahlillarini ko'rib chiqishni maqsad qildik.

**Kalit so'zlar:** zoonim, frazeologik birliklar, badiiy tarjima, ekvivalent, asliyat tarjima, muqobil variantlar

Bugungi kunda o'zbek adabiyotining mumtoz namunalarini sanalgan bebaho san'at asarlarining jahon tillariga tarjima qilinayotganligi adabiyotimizning jahonda o'zining munosib o'rnini topishida muhim ahamiyat kasb etadi. "Badiiy tarjimani ilmiy tavsiflash shundan iboratki, bunda so'zni so'z bilan emas, balki ma'noni ma'no bilan, ohangni ohang bilan, obrazni obraz bilan, yumorni yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir".<sup>1</sup> A.Muxtorning so'zi bilan aytganda: "Tarjimon til materiallari yig'indisi bilan emas, estetik qonuniyatlar asosida uyushgan badiiy asar bilan ish ko'radi. Biroq tarjima haqida yozganda yoki gapirganda ko'plar hali ham hunar texnologiyasi, turli tillar strukturasi bilan nariga o'tolmaydilar, go'yo tarjimon ish jarayonida sira ham his-hayajonga berilmaydigandek".<sup>2</sup> To'la ma'nodagi tarjimaning asosiy sharti – asl nusxani badiiy o'ziga xosligi, milliy xususiyatlari va muallifning individual ijodiy maneralarini bera bilish deb hisoblash kerak. Biroq bu qoida xar doim bajarilavermaydi. Hatto asarning mazmunini deyarli aniq bera oladigan malakali tarjimonlar ham muallifning individual maneralarini to'liq berolmaydilar.<sup>3</sup> O'girilayotgan tilda o'z ona tilidek ifodasini topgan tarjimagina o'sha millat xazinasidan joy oladi. Tarjimon esa mana shunday manaviy xazinaning bir durdonasini yaratadi. Xuddi shu asarga yangidan hayot baxsh etadi.<sup>4</sup>

Badiiy tarjimada ishtirok etayotgan zoonimik frazeologiyani aks ettirishni quyidagicha talqin qilish mumkin:

1. Asliyat frazeologiyasini tarjima tilidagi ekvivalentlari bilan almashtirish orqali. Tillarda o'zaro ekvivalent frazeologik iboralar borki, ular deyarli har qanday kontekst ichida ham bir xilda tarjima qilinishi mumkin. O'tkir Hoshimovning mashhur asarlaridan biri bo'lmish "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida ham yozuvchining voqealarni tushunarliroq hamda o'quvchiga mos keladigan tarzda tasvirlashi uchun turli xil hayvon nomi bilan bog'liq frazeologik birliklardan foydalanganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, asarda Shoikrom tomonidan Gitlarga nisbatan "to'ng'iz qo'pishi" ma'nosi: o'lishi iborasi qo'llanilgan. Yozuvchi bu yerda

<sup>1</sup> G.Salamov. Tarjima nazariyasi asoslari, Toshkent, 1983

<sup>2</sup> Asqad Muxtor, Tarjima san'atini, maqolalar to'plami. 5-kitob. Toshkent. 1980, b 18-19.

<sup>3</sup> Aznaurova.E. —Tarjima san'atini Toshkent, 1961

<sup>4</sup> L.Aminova, BADIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI (YASHAR KAMOLNING "ILONNI O'LDIRSALAR" QISSASI MISOLIDA), ЎЗБЕКИСТОН ТАРЖИМАШУНОСЛАРИ ФОРУМИ-2018, ilmiy maqolalar to'plami, b 190

disfemizmdan foydalangana qo‘pol so‘zlardan foydalanish uslubidir. Yuqorida berilgan “to‘ng‘iz qo‘pishi” birligini ham biz birinchi usul-asliyat frazeologiyasini tarjima tilidagi ekvivalentga almashtirish yo‘li bilan tarjima qilishimiz mumkin. Bu iboraning ingliz tilidagi ekvivalenti tarzda “sleeping with the fishes” birligini olishimiz tavsiya etiladi.

2. Asliyat tili frazeologiyasini tarjima tilidagi muqobil variantlar bilan o‘g‘irish

O‘tkir Hoshimovning asarlarini kuzatar ekanmiz, uning tilidan, uning nodir topilmas so‘zlaridan naqadar mahorat bilan unumli foydalanganligini kuzatamiz. Bu so‘zlar tizimi bevosita uslubiyat, badiiy tasvir vositalari bilan bog‘liqdir. Yozuvchining eng ko‘p va sevib o‘qilgan asarlaridan biri “Ikki eshik orasi” romanidagi hayvon nomi bilan bog‘liq iboralardan keng foydalanganligiga amin bo‘ldik. Asar sarlavhasi ham juda chiroyli tanlangan. “Ikki eshik orasi” deganda inson umrini, ya‘ni tug‘ilgandan o‘lgungacha bosib o‘tgan yo‘lni nazarda tutadi. Asarda ham iboralar juda ko‘p uchraydi. Masalan: “Jo‘jani kuzda sanaymiz” (Ingliz tilida taklif etilayotgan muqobil variant: Don’t count your chickens before they hatched), “Bo‘rini eslasang, qulog‘i ko‘zga ko‘rinadi” (Ingliz tilida taklif etilayotgan muqobil variant: Speak of the devil) kabi iboralar personajlar nutqini yanada boyishiga xizmat qilgan. Maqollar - xalq orasida kun sayin tug‘ilib turganidek, ota – bobolar so‘zi sifatida avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tadi. U shaklan qisqa bo‘lib, voqeilikni yoyiq holda ifoda qiladi. Shunday maqollardan asarda talaygina. “Jon omon bo‘lsa, mol topiladi”, “Ot o‘rnini toy bosar”, “Mol egasiga o‘xshamasa, harom o‘ladi”, “Ot aylanib qozig‘ini topadi” kabi hayvon nomi bilan bog‘langan maqollar esa O‘.Hoshimovning asari ta’sirchanligini oshirgan. Qolaversa, xalqimiz orasida ilon deyilganda ko‘chma ma'noda shum, ayyor, firibgar shaxslar tushuniladi. Umuman, frazeologizmlar ma'nosida albatta pragmatik sema bo‘ladi.<sup>5</sup>

Ernest Hemingway ning “The Old Man and the Sea” (Chol va dengiz) asarida ham inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi zoonimik frazeologik birliklar mavjud. Asarda hayvonlar va tabiat elementi orqali ruhiy holat, kurash va tirikchilik ta’riflanadi:

1. *To fight like a lion – katta kuch va shijoat bilan kurashish. “Santiago fought like a lion against the marlin, using all his strength and determination to capture the fish.”; Like a fish out of water – o‘zini noqulay his qilish. “At times, Santiago felt like a fish out of water in the vast ocean, struggling against forces beyond his control.” .To swim like a fish – katta mahorat bilan suzish. “The marlin swam like a fish in its natural element, moving effortlessly through the water, but Santiago was determined to catch it.” To have the patience of a cat – xotirjam va umidsizlik bilan kutish. “Santiago showed the patience of a cat as he waited for the marlin to tire, knowing he had to outlast it.”<sup>6</sup>*

Bu misollar “The Old Man and the Sea” asarida inson va tabiat o‘rtasidagi kurashni, hayvonlar va tabiatning kuchini ifodalovchi frazeologik birliklarning qanday ishlatilganini ko‘rsatadi. Hayvonlar va tabiat elementlari bu asarda Santiago va dengiz orasidagi ichki kurashni tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi.

Badiiy matnlardagi zooleksik iboralarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar quyidagicha izohlaymiz:

So‘zma-so‘z tarjimaning to‘liq yetishmasligi; bunday tarzda to‘g‘rida to‘g‘ri tarjima qilish ko‘p tarjima ishlarida keltirgan muommolar singari zooleksemlar qatnashgan frazeologik iboralar

<sup>5</sup> B.Yo‘ldoshev. O‘zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari, Samarqand, SamDU nashri, 2002. 37-b.

<sup>6</sup> Ernest Hemingway, “The Old man and the sea”, Scribner Edition, USA, 2003.

borasida ham jiddiy muammo tug‘diradi, ayniqsa, XXI asr mashina tarjimasi uchun noto‘gri tushunchalarni paydo qilishiga sabab bo‘lishi mumkin; barqaror iboralarni tarjima qilish muammosi- hayvon nomi bilan bog‘liq zoonimik ibora qatnashgan maqol, matal va afarizmlar tarjimasida ikki tilda uchrab turadigan muommolar; madaniy farqlarni hisobga olish zarurati – zoomorfemalarning ishlatilishi madaniy hattoki, geografik joylashuvga ham bo‘g‘liq. Masalan, o‘zbek tilida ba’zi dengiz jonivorlari bilan kelgan zoonimik iboralarning umuman mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Shunday ekan, ularni o‘rgiruvchi kishi har ikki xalq madaniyatiga mansub va ularning til boyligidan xabardor bo‘lishi kerak. Tarjima shunday san‘atki, unda biror so‘z yoki iboraning tarjimasi shundaygina lug‘atdan olib, ikkinchi tekstga ko‘chirib qo‘yilmaydi. Lug‘atlar esa ko‘p hollarda tekstda tasvirlanayotgan voqeani, vaziyatni ifodalash uchun o‘zgarib qolib qolishini inobatga olish darkor.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G.Salamov. Tarjima nazariyasi asoslari, Toshkent, 1983
2. Asqad Muxtor, Tarjima san‘ati, maqolalar to‘plami. 5-kitob. Toshkent. 1980, b 18-19.
3. Aznaurova.E. —Tarjima san‘ati, Toshkent, 1961
4. L.Aminova, Badiiy asar tarjimasining o‘ziga xos jihatlari (Yashar Kamolning “Ilonni o‘ldirsalar” qissasi misolida, Ilmiy maqolalar to‘plami, 2018, 190-b.
5. B.Yo‘ldoshev. O‘zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari, Samarqand, SamDU nashri, 2002. 37-b.
6. Ernest Hemingway, “The Old man and the sea”, Scribner Edition, USA, 2003.